

### III SHO'BA

## O'ZBEKISTON TURIZM BOZORINING TARKIBIY TUZILISHI, RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI

---

*Farhod XOLMAMATOV,*  
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori,*  
*Munisa SHAMANSUROVA,*  
*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi magistranti*

### O'ZBEKISTONDA TURIZM XIZMATLARI EKSPORTINI KENGAYTIRISH ASOSIDA TO'LOV BALANSINI YAXSHILASH MEXANIZMLARI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekistonda turizm xizmatlari eksportini kengaytirish orqali to'lov balansini yaxshilash mexanizmlari tadqiq etilgan. Xalqaro turizm xizmatlari mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy valyuta tushumlarini jalb etishning muhim manbai sifatida tahlil qilinib, uning joriy operatsiyalar hisobi va xizmatlar balansiga ta'siri baholangan. Shuningdek, respublikada turizm infratuzilmasini rivojlantirish, turistik xizmatlar sifatini oshirish, raqamli platformalarni joriy etish, viza va transport xizmatlarini liberallashtirish hamda investitsion jozibadorlikni kuchaytirish orqali turizm eksport salohiyatini oshirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari asosida turizm xizmatlari eksportini diversifikatsiya qilish, turistik oqimlarni ko'paytirish va milliy iqtisodiyotda valyuta tushumlari barqarorligini ta'minlashga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqolada turizm sohasining mamlakat to'lov balansini barqarorligini ta'minlashdagi strategik ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** turizm xizmatlari eksporti, to'lov balansini, xalqaro turizm, valyuta tushumlari, xizmatlar balansini, turistik infratuzilma, investitsiyalar, raqamli turizm, iqtisodiy barqarorlik.

**Аннотация.** В данной статье исследованы механизмы совершенствования платёжного баланса Узбекистана посредством расширения экспорта туристических услуг. Международные туристические услуги рассматриваются как важный источник привлечения валютных поступлений в национальную экономику, а также оценивается их влияние на счёт текущих операций и баланс услуг. Кроме того, в исследовании рассмотрены возможности повышения экспортного потенциала туристической отрасли за счёт развития туристической инфраструктуры, повышения качества туристических услуг, внедрения цифровых платформ, либерализации визовых и транспортных услуг, а также усиления инвестиционной привлекательности страны. На основе результатов исследования разработаны практические предложения и рекомендации, направленные на диверсификацию экспорта туристических услуг, увеличение туристических потоков и обеспечение стабильности валютных поступлений в национальной экономике. В статье научно обоснована стратегическая значимость туристической отрасли в обеспечении устойчивости платёжного баланса страны.

**Ключевые слова:** экспорт туристических услуг, платёжный баланс, международный туризм, валютные поступления, баланс услуг, туристическая инфраструктура, инвестиции, цифровой туризм, экономическая стабильность.

**Abstract.** In this article, the mechanisms for improving the balance of payments through the expansion of tourism service exports in Uzbekistan are studied. International tourism services are analyzed as an important source of foreign currency inflows into the national economy, and their impact on the current account and services balance is assessed. In addition, the study examines opportunities to increase tourism export potential in the country by developing tourism

*infrastructure, improving the quality of tourist services, introducing digital platforms, liberalizing visa and transport services, and strengthening investment attractiveness. Based on the research findings, practical proposals and recommendations are developed aimed at diversifying tourism service exports, increasing tourist flows, and ensuring the stability of foreign exchange earnings in the national economy. The article scientifically substantiates the strategic importance of the tourism sector in ensuring the stability of the country's balance of payments.*

**Keywords:** *tourism service exports, balance of payments, international tourism, foreign exchange earnings, services balance, tourism infrastructure, investments, digital tourism, economic stability.*

Jahon iqtisodiyotida xizmatlar sohasining ulushi yildan-yilga ortib borayotgan bo'lib, ayniqsa, xalqaro turizm xizmatlari mamlakatlar iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi muhim omillardan biriga aylanmoqda. Turizm nafaqat aholi bandligini oshirish va hududiy infratuzilmani rivojlantirishga, balki mamlakatga xorijiy valyuta tushumlarini jalb etish orqali to'lov balansining ijobiy shakllanishiga ham xizmat qiladi. Shu jihatdan, turizm xizmatlari eksportini kengaytirish iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, tashqi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash hamda milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, mamlakatning turistik salohiyatidan samarali foydalanishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Viza rejimining soddalashtirilishi, transport va mehmonxona infratuzilmasining modernizatsiya qilinishi, ziyorat, ekologik, tibbiy va gastronomik turizm kabi yangi turistik yo'nalishlarning shakllantirilishi xalqaro turistik oqimlarni ko'paytirishga xizmat qilmoqda. Natijada, turizm xizmatlari eksporti mamlakat iqtisodiyotiga valyuta tushumlarini jalb qilishning muhim manbasiga aylanib bormoqda.

Biroq, global iqtisodiy beqarorlik, xalqaro raqobatning kuchayishi, transport logistikasi bilan bog'liq muammolar hamda turistik xizmatlar sifatidagi ayrim kamchiliklar O'zbekiston turizm xizmatlari eksporti salohiyatidan to'liq foydalanish imkoniyatlarini cheklab kelmoqda. Bu esa turizm xizmatlari eksportini kengaytirish orqali to'lov balansini yaxshilashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda..

Turizm xizmatlari eksporti va uning mamlakat to'lov balansiga ta'siri masalalari xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Ilmiy adabiyotlarda turizm sohasi mamlakat iqtisodiy o'sishi, valyuta tushumlari hajmini oshirish, tashqi savdo muvozanatini ta'minlash hamda xizmatlar eksportini diversifikatsiya qilishning muhim omili sifatida baholanadi.

Xorijiy olimlardan M.Porter, F.Kotler, J.Keyns, R.MakIntosh va J.Uokerlarning tadqiqotlarida turizm industriyasining milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligiga ta'siri, turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish mexanizmlari hamda xalqaro turizmning valyuta tushumlarini ko'paytirishdagi ahamiyati nazariy jihatdan asoslab berilgan. Jumladan, M.Porter mamlakat raqobat ustunliklarini shakllantirishda xizmatlar sohasi, xususan turizmning ahamiyati yuqori ekanligini ta'kidlagan. F. Kotler esa turistik xizmatlarni marketing asosida rivojlantirish orqali xalqaro turistlar oqimini oshirish mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Shuningdek, Butunjahon Turizm Tashkiloti – United Nations World Tourism Organization tadqiqotlarida turizm xizmatlari eksportining mamlakat yalpi ichki mahsuloti, bandlik darajasi va to‘lov balansiga ijobiy ta‘siri statistik ma‘lumotlar asosida tahlil qilingan. Ushbu tashkilot ma‘lumotlariga ko‘ra, xalqaro turizm jahon xizmatlar eksportining eng yirik tarmoqlaridan biri hisoblanadi va ko‘plab davlatlarda xorijiy valyuta tushumlarining asosiy manbasi sifatida xizmat qiladi.

MDH davlatlari olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda turizm xizmatlari eksportini rivojlantirishning institutsional va moliyaviy mexanizmlari, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash usullari hamda turistik infratuzilmani modernizatsiya qilish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan. Ayniqsa, turizm sohasida davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilish orqali eksport salohiyatini oshirish muhim omil sifatida baholangan.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan Q.Haqberdiev, Sh.Shodmonov, A.Vahobov, I.Tuxliev va boshqalarning ilmiy ishlarida mamlakatda turizm sohasini rivojlantirishning iqtisodiy asoslari, turistik xizmatlar bozorini takomillashtirish hamda turizmning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta‘siri tahlil qilingan. Xususan, I. Tuxliev o‘z tadqiqotlarida O‘zbekistonning turistik salohiyatidan samarali foydalanish, milliy turistik mahsulotlarni xalqaro bozorlarga chiqarish va turizm xizmatlari eksportini kengaytirish masalalariga alohida to‘xtalgan.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlarda turizm xizmatlari eksportining to‘lov balansi barqarorligiga ta‘sirini kompleks baholash, xizmatlar eksportini raqamlashtirish asosida rivojlantirish, zamonaviy marketing instrumentlaridan foydalanish hamda O‘zbekiston sharoitida turistik xizmatlar eksportini kengaytirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari yetarlicha tadqiq etilmagan. Mazkur holat ushbu yo‘nalishda qo‘shimcha ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar natijasida turistik xizmatlar eksporti hajmi va xorijiy turistlar oqimi sezilarli darajada oshdi. Xususan, viza rejimining liberallashtirilishi, elektron viza tizimining joriy qilinishi, yangi aviaqatnovlar sonining ko‘payishi hamda turistik infratuzilmaning rivojlantirilishi mamlakatning xalqaro turistik bozordagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qildi.



**1-rasm. Turistik firma va tashkilotlar soni**

Tahlil natijalariga ko'ra, 2010 – 2024-yillar davomida O'zbekistonda turistik firma va tashkilotlar sonining umumiy o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Jumladan, 2010-yilda mazkur ko'rsatkich 313 tani tashkil etgan bo'lsa, 2019-yilga kelib 517 taga yetgan. Bu davrda turistik tashkilotlar sonining ortishi mamlakatda turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari, turistik infratuzilmaning takomillashuvi, xususiyl sektorini qo'llab-quvvatlash choralari hamda xalqaro turistlar oqimining ortishi bilan izohlanadi.

Ayniqsa, 2015–2019-yillarda turistik firmalar sonining nisbatan yuqori sur'atlarda o'sganligi kuzatiladi. Masalan, 2015-yilda 398 tani tashkil etgan ko'rsatkich 2018-yilda 502 taga, 2019-yilda esa 517 taga yetgan. Bu holat mamlakatda turizm sohasida amalga oshirilgan institutsional islohotlar, vizasiz rejimning kengaytirilishi va milliy turizm brendining xalqaro bozorlarda faol targ'ib qilinishi natijasi sifatida baholanadi.

Biroq, 2020–2021-yillarda turistik tashkilotlar soni keskin kamaygan. Xususan, 2020-yilda ko'rsatkich 337 taga, 2021-yilda esa 288 taga tushib ketgan. Bu holat, asosan, COVID-19 pandemiya bilan bog'liq bo'lib, xalqaro sayohat cheklavlari, karantin choralari va turistik xizmatlarga bo'lgan talabning pasayishi natijasida ko'plab turistik firmalar faoliyati vaqtincha to'xtagan yoki bozorni tark etgan.

2022-yildan boshlab sohada qayta tiklanish jarayoni kuzatilib, turistik tashkilotlar soni yana o'sish tendensiyasiga ega bo'ldi. Jumladan, 2022-yilda 348 ta, 2023-yilda 593 ta va 2024-yilda 743 taga yetgan. Ayniqsa, 2023–2024-yillardagi yuqori o'sish sur'atlari pandemiyadan keyin turizm sohasini qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat tomonidan yaratilgan imtiyozlar, raqamli turistik xizmatlarning rivojlanishi, ichki va tashqi turistik oqimning faollashuvi hamda xususiyl investitsiyalarning ko'payishi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, tahlil natijalari O'zbekistonda turizm sohasining yuqori iqtisodiy salohiyatga ega ekanligini va turistik firma hamda tashkilotlar sonining ortishi xizmatlar eksportini kengaytirish, yangi ish o'rinlari yaratish va mamlakat to'lov balansiga ijobiy ta'sir ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, sohaning tashqi xatarlarga sezgirligi uni diversifikatsiya qilish, raqamlashtirish va inqirozlarga bardoshli mexanizmlarni shakllantirish zarurligini ham namoyon etadi.

1-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 2015–2024-yillar davomida O'zbekistonning joriy hisob balansida bosqichma-bosqich salbiyl tendensiya shakllangan. Xususan, 2015-yilda joriy hisob balansi 0,2 mlrd. AQSh dollari miqdorida ijobiy holatda bo'lgan bo'lsa, keyingi yillarda tashqi savdo operatsiyalari hajmining keskin ortishi natijasida defitsit darajasi yuqorilab borgan. 2023-yilga kelib joriy hisob defitsiti -8,5 mlrd. AQSh dollarini yoki YaIMga nisbatan -10,2 foizni tashkil etgan. 2024-yilda esa ushbu ko'rsatkich ma'lum darajada yaxshilanib, -7,2 mlrd. dollarga tushgan.

Tahlillarga ko'ra, joriy hisob defitsitining asosiy sababi tashqi savdo balansidagi manfiyl farqning ortib borishi bilan izohlanadi. Jumladan, 2015-yilda tashqi savdo balansi -1,8 mlrd. dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib -11,8 mlrd. dollargacha yomonlashgan. Bu holat import hajmining eksportga nisbatan tezroq o'sishi bilan bog'liq. Masalan, 2015-yilda eksport 12,5 mlrd. dollar va import

14,3 mlrd. dollar bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda eksport 21,2 mlrd. dollarga yetganiga qaramasdan, import hajmi 33,0 mlrd. dollargacha oshgan. Natijada tashqi savdo defitsiti kengaygan.

**1-jadval**

**O'zbekistonning joriy hisob balansi komponentlari (2020-2024)<sup>141</sup>**

Yil	Joriy hisob (mlrd Aqsh Dollari)	Joriy hisob (yaimga %)	Savdo balansi (mlrd. aqsh Dollari)	Eksport (mlrd. aqsh Dollari)	Import (mlrd. aqsh Dollari)	Xizmatlar balansi (mlrd. aqsh dollari)	Daromad balansi (mlrd. aqsh dollari)	Trans balan (mlrd. aqsh dollari)
2015	0,2	0,3%	-1,8	12,5	14,3	-0,8	-0,4	3,2
2016	0,4	0,6%	-2,1	11,5	13,6	-0,7	-0,5	3,7
2017	-1,3	-2,7%	-4,2	13,8	18,0	-0,9	-0,6	4,4
2018	-3,1	-6,2%	-6,8	15,6	22,4	-1,2	-0,8	5,7
2019	-4,2	-7,3%	-8,4	17,4	25,8	-1,4	-1,1	6,7
2020	-3,5	-5,9%	-7,2	15,1	22,3	-1,8	-0,9	6,4
2021	-5,8	-8,7%	-9,7	17,8	27,5	-1,6	-1,2	6,7
2022	-7,1	-9,8%	-11,2	18,4	29,6	-1,9	-1,5	7,5
2023	-8,5	-10,2%	-11,8	21,2	33,0	-2,3	-1,8	7,4
2024*	-7,2	-8,1%	-10,5	19,8	30,3	-2,1	-1,6	7,0

Xizmatlar balansi tahlili ham salbiy tendensiyani ko'rsatmoqda. 2015-yilda xizmatlar balansi -0,8 mlrd. dollar bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda -2,3 mlrd. dollarga yetgan. Bu esa transport, logistika va xalqaro xizmatlar importining yuqori ulushga egaligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, turizm xizmatlari eksportini rivojlantirish orqali mazkur defitsitni qisqartirish imkoniyati mavjud hisoblanadi. Turizm xizmatlari mamlakatga to'g'ridan-to'g'ri valyuta tushumlarini jalb qilib, xizmatlar balansi barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Daromadlar balansi ham tahlil qilingan davrda manfiy holatda saqlanib qolgan. Xususan, 2015-yilda -0,4 mlrd. dollar bo'lgan ko'rsatkich 2023-yilda -1,8 mlrd. dollarga yetgan. Bu holat xorijiy investitsiyalar bo'yicha foiz to'lovlari va tashqi qarz majburiyatlarining ortishi bilan bog'liq.

Shu bilan birga, transfertlar balansi joriy hisob defitsitini ma'lum darajada qoplashga xizmat qilgan. Xususan, tahlil qilingan yillarda transfertlar hajmi 3,2 mlrd. dollardan 7,5 mlrd. dollargacha o'sgan. Bu asosan mehnat migrantlari tomonidan yuborilgan pul o'tkazmalari hisobiga shakllangan bo'lib, mamlakat tashqi iqtisodiy barqarorligini saqlashda muhim omil sifatida namoyon bo'lgan.

Umuman olganda, tahlil natijalari O'zbekiston iqtisodiyotida importga yuqori darajadagi bog'liqlik saqlanib qolayotganligini ko'rsatadi. Joriy hisob defitsitini qisqartirish uchun eksport salohiyatini oshirish, ayniqsa, xizmatlar eksporti va turizm sohasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Turizm xizmatlari eksportini kengaytirish orqali mamlakatga qo'shimcha valyuta tushumlarini jalb qilish, xizmatlar balansi defitsitini kamaytirish va joriy hisob barqarorligini mustahkamlash mumkin.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida O'zbekistonda turizm xizmatlari eksportini

<sup>141</sup> O'zbekiston Markaziy banki <https://cbu.uz/uz/statistics/bop/3673153/> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi

kengaytirish mamlakat to'lov balansi barqarorligini ta'minlashning muhim omillaridan biri ekanligi aniqlandi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, so'nggi yillarda mamlakatda turistik infratuzilmani rivojlantirish, viza rejimini liberallashtirish va xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar turistik tashkilotlar soni va xalqaro turistlar oqimining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Shu bilan birga, joriy hisob balansi va tashqi savdo balansidagi manfiy tendensiyalar mamlakat iqtisodiyotida xizmatlar eksportini, ayniqsa, turizm xizmatlari eksport salohiyatini yanada rivojlantirish zarurligini ko'rsatmoqda. Xizmatlar balansi defitsitini qisqartirishda turizm sohasi muhim strategik yo'nalish hisoblanadi. Turizm xizmatlari orqali mamlakatga xorijiy valyuta tushumlarini jalb qilish tashqi iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

– mamlakatning turistik salohiyati yuqori bo'lgan hududlarida zamonaviy turistik infratuzilmani rivojlantirish va xalqaro standartlarga mos xizmatlar ko'lamini kengaytirish;

– turizm sohasiga xususiy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun soliq va moliyaviy imtiyozlar tizimini takomillashtirish;

– ziyorat, ekologik, tibbiy, gastronomik va qishloq turizmi kabi yo'nalishlarni diversifikatsiya qilish orqali turistik xizmatlar eksportini oshirish;

– turistik xizmatlar sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini xalqaro talablar asosida takomillashtirish;

– turizm sohasida raqamli platformalar, onlayn bronlash va elektron to'lov tizimlarini keng joriy etish;

– turistik xizmatlar eksporti va uning to'lov balansiga ta'sirini baholash bo'yicha zamonaviy statistik monitoring mexanizmlarini rivojlantirish.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda turizm xizmatlari eksportini kengaytirish tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirish, joriy hisob defitsitini qisqartirish va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini mustahkamlashning muhim strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Turizm sohasini innovatsion va institutsional jihatdan rivojlantirish orqali mamlakat to'lov balansi barqarorligini ta'minlash imkoniyatlari yanada kengayadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. United Nations World Tourism Organization (UNWTO). International Tourism Highlights. Madrid, various years.

2. World Bank. World Development Indicators Database. Washington D.C., various years.

3. International Monetary Fund (IMF). Balance of Payments Manual (BPM6). Washington D.C., 2009.

4. Asian Development Bank. Uzbekistan Economic Update. Manila, various years.

5. Портер М. Халқаро рақобат устунлиги. – Москва: Альпина Паблишер, 2019. – 947 б.

6. Котлер Ф. Маркетинг асослари. – Тошкент: Шарқ, 2020. – 624 б.

7. Тухлиев И.С. Туризм асослари. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2014. – 384 б.
8. Ваҳобов А.В., Хажибакиев Ш.Х., Муминов Н.Г. Халқаро иқтисодий муносабатлар. – Тошкент: Sharq, 2018. – 512 б.
9. Шодмонов Ш.Ш., Гафуров У.В. Иқтисодиёт назарияси. – Тошкент: IQTISOD-MOLIYA, 2019. – 728 б.
10. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. To‘lov balansi statistikasi бўйича расмий маълумотлар.
11. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Turizm va хизматлар соҳаси статистик кўрсаткичлари.
12. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Ўзбекистон иқтисодиёти бўйича йиллик ҳисоботлар.
13. UNCTAD. Handbook of Statistics. Geneva, various years.
14. Rasulov A., Karimov B. Development of Tourism Services Export in Uzbekistan // Journal of Economics and Business Research. – 2023. – Vol. 7, No. 2. – pp. 45–53.

**Olim ASTANAKULOV,**  
**O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,**  
**Xalqaro hamkorlik masalalari bo‘yicha prorektori, DSc, prof.,**  
**Muslimaxon SOXIBOVA,**  
**Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti**

## **TURIZM INDUSTRIYASIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLASHTIRISH: KONTSEPTUAL YONDASHUV VA ISTIQBOLLAR**

**Аннотация.** Ushbu maqolada turizm korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali kadrlar salohiyatini oshirish, xodimlarni boshqarish jarayonlarini optimallashtirish va mehnat samaradorligiga erishishning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilingan. Shuningdek, sohada inson kapitalini raqamli transformatsiya qilishning istiqbolli yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Raqamli platformalar va sun‘iy intellekt elementlarining HRM tizimidagi roli kontseptual jihatdan asoslab berilgan.

**Калит со‘злар:** turizm industriyasi, inson resurslari, raqamlashtirish, HRM, raqamli transformatsiya, inson kapitali, boshqaruv mexanizmi.

**Аннотация.** В данной статье анализируются современные подходы к повышению потенциала человеческих ресурсов, оптимизации процессов управления персоналом и достижению эффективности труда за счет внедрения цифровых технологий на предприятиях туристической отрасли. Также разработаны научные предложения и рекомендации по перспективным направлениям цифровой трансформации человеческого капитала в отрасли. Концептуально обоснована роль цифровых платформ и элементов искусственного интеллекта в системе управления человеческими ресурсами.

**Ключевые слова:** туристическая отрасль, человеческие ресурсы, цифровизация, управление человеческими ресурсами, цифровая трансформация, человеческий капитал, механизм управления.

**Abstract.** This article analyzes modern approaches to increasing human resources capacity, optimizing personnel management processes and achieving labor efficiency through the introduction of